Ona yurting - oltin beshiging

TONG yulduzi

O‘zbekiston Respublikasi bolalari va o‘smirlari gazetasi

Muassislar:

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi,

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,

«SOG‘LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2007-yil 5 – 11 - fevral N:6 (66599)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI IN.№

Alisher Navoiy tavalludining 566 yilligiga

Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

BOBOMIZGA EHTIROM

Ayni kunlarda respublikamizdagi qay bir bilim maskanida bo‘lmang, ulug‘ mutafakkir mir Alisher Navoiy tavalludining 566 yilligiga bag‘ishlangan kecha va tadbirlarga guvoh bo‘lishingiz tayin.

Kuni kecha poytaxtimizdagi 27-maktabda bo‘lganimizda, biz ham ana shunday ajoyib tadbirning ustidan chiqdik. Bayramona bezatilgan faollar zali o‘qituvchilar- u o‘quvchilar bilan gavjum. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Nigora Erkinova hamda Kamola Odilovalar tashkillashtirgan tadbirga Fayzulla Xo‘jayev nomli mahalla raisi Ra'no opa Yunusova, Xotin-qizlar va diniy qo‘mitasi raisi Mufassal opa Valiyeva singari juda ko‘plab mehmonlar kelishdi.

Malika Fayziyeva va Iroda To‘xtamurodovalar Navoiy bobomizning g‘azal va ruboiylaridan ifodali o‘qib, kechani boshlab berishdi. Bobomiz siymosini yaratgan Sirojiddin To‘rajonov hamda Guli timsoliga kirgan Nargiza Haydarova mahoratiga kechaga mehmon bo‘lib kelgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Aminjon Erkayev ham yuqori baho berdilar. Navoiy g‘azallaridan qo‘shiqlar ijro etildi, Nodira dutor chertdi, Mushtariy raqsga tushdi. Nigora Ibragimova, Dilshod Qodirqulov, Ro‘zimat Jumanazarov, Nilufar Xudoyberganova, Dilnoza Hasanova kabi o‘quvchilar ishtirokidagi mushoirani shu maktabda tahsil oladigan rusiyzabon o‘quvchilar ham berilib tomosha qilishdi.

Kecha bizda ham katta taassurot qoldirdi. Shu tariqa buyuk mutafakkir bobomizga hurmat va ehtirom bildirgan o‘quvchilar bizni kelgusi haftada o‘tadigan Bobur tavalludiga bag‘ishlangan kechaga ham taklif qilib qolishdi.

O‘z muxbirimiz.

«MUNOJOT» HAQIDA

«Munojot» Navoiy umrining oxirgi yillarida bitilgan. U shoirning «o‘ziga o‘z maktubi» tarzida yozilgan. Lekin «Munojot»dagi kishini larzaga soluvchi mazmun shoir zamondoshlarining diqqatini tortgan. Alisher Navoiy umrining so‘nggi yillarida bitilgan asar hajmi 100 band atrofida. «Munojot» shoirning o‘z umri yakuni arafasida Ollohga iltijosi, murojaatidan iboratki, unda eng samimiy tuyg‘ulari, qalbidagi eng chuqur hislari, dunyoqarashi va e'tiqodining eng tub usullari mujassam. Lo‘nda qilib aytilsa, «Munojot»ni Navoiy shaxsiyatining eng tiniq ko‘zgusi deb atash mumkin. Asar o‘ziga xos janrda bitilgani bois, hatto uni ilohiy ilhom mahsuli deyishga jur'at etamiz. «Munojot»ni adabiyotimiz jonkuyarlaridan Suyima opa G‘aniyeva 1991-yilda Toshkentda nashr etdi.

Sirtdan boqqanda, asar saj' (qofiyalangan nasr) janrida yozilgan. Lekin rasmiy tasnif qobig‘idan chiqilsa, «Munojot» matnida ravshan qofiya bilan birga vazn ham mavjud deya olamiz. Harqalay uning vazni sarbast (oq she'rlar)ga nisbatan qat'iyroq. Ayni paytda «Munojot» vazni aruz, barmoq yoki sarbast qolipida deyish ham durust emas. Asar janr nuqtayi nazaridan badiiy adabiyotga nisbatan Qur'oni Karim suralariga yaqinroq tursa kerak.

Keyinroq munojot adabiyotga kirgan va hatto mustaqil janrga aylangan: shoirlar nazmiy munojot bita boshlaganlar. IX-X asrlarga kelib kitob boshida yo oxirida munojot berish an'anaga aylangan. Alisher Navoiy asarlarida ko‘plab munojot namunalari mavjud. Masalan, «Hayratul-abror»da to‘rtta, «Lisonut-tayr»da yettita munojot berilgan. Lekin «Munojot» asari bu janr durdonalarining durdonasidir.

O‘zbek tili tarixini Navoiy ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, tilimizning kelajagi ham bizning buyuk shoir va mutafakkir asarlariga munosabatimizga ko‘p jihatdan bog‘liq: o‘zbek tili boshqa tillar orasida qanday mavqega ega bo‘lishida Navoiy siymosi eng salmoqli o‘rin tutishi aniq. Shubhasiz, o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik albatta Navoiyni o‘qishga unnaydi. Va aksincha, Navoiy ijodini o‘rganmoqchi bo‘lgan chet ellik mutaxassislar o‘zbek tilini o‘rganishga kirishadilar.

Demak, bugungi va kelgusi avlod Navoiyga, boshqa klassiklarimizga intilmog‘i kerak.

Abdulla A'ZAMOV.
(Muallifning «Munojotnoma» asaridan olindi).

SPORTGA E'TIBOR QILADAN BOSHLANADI

Uyimizning yonginasida 275-maktab bor. Men o‘qigan bu maktabning kichkinagina sport maydonchasi bo‘lib, unda sport bilan shug‘ullanish uchun deyarli hech qanday sharoit yo‘q. Sport bilan shug‘ullanishni astoydil istagan kishiga shu 2-3ta jihozlar-u birgina futbol to‘pi ham yetarli, shekilli, maydonchada aylanib yurib 5-6 nafar o‘g‘il-qizlarni uchratdim.

Ulardan ikki qiz «Shved devori» deb nomlanuvchi turnikda turli mashqlarni bajarishmoqda, boshqasi esa maydon bo‘ylab asta yugurmoqda. Bu yerda qizlarni uchratganim meni juda quvontirdi.

Shu payt ko‘zim buvasi bilan maydon bo‘ylab aylanib yurgan kichik bolakayga tushdi. Chunki ko‘p qavatli uylar oldidagi yo‘laklar mashina bilan band. Kuzatsam, bolakayning harakatlari bilan birga og‘zi ham tinmayapti, buvasiga savollarni «yog‘diryapti»...

–Buvajon, shu maydonni aylanaversak nima bo‘ladi?

–Qaragin, kechki salqin, havo qanday yaxshi, – oltmish yoshni qoralab qolgan buva erinmaygina javob bera boshladi.

–Shu musaffo havodan bahramand bo‘lish bizga juda foydali. Shu bilan birga oyoqlarimiz bilan harakat qilayotganimiz esa sening baquvvat bola bo‘lishingda yordam beradi. Sport kishilarning sog‘ligini mustahkamlaydi.

–Endi har kuni aylanishga chiqamiz-a, buvajon?!

–Ha, albatta. Ertaga yana chiqamiz, ba'zi jismoniy mashqlarni ham bajaramiz.

Bu kichik suhbatga quloq solib, ko‘nglimdagini tilimga chiqargim keldi.

–Baraka toping, buvajon! Nabirangizning sizday buvasi bor ekan, u sog‘lom, baquvvat bo‘lib kamol topadi.

Shunday buva-buvilar, ota-onalarimiz ko‘payishsa qani edi? Balki shunda o‘smirlar bo‘sh vaqtlarini kompyuter o‘yinlarini o‘ynash-u televizor ko‘rish bilan o‘tkazmas edilarmi?!

Menimcha, bolalarni kichikligidan sportga qiziqtirish uchun ota-onalardan ozgina e'tibor kerak. Qolaversa, ayrim maktab va uylar oldidagi sport maydonchalarini ham biroz ta'mirlash lozim, nazarimizda.

Sayyora JO‘RAYEVA.

«A,B,V – HAMMA BILADI»

Ushbu misralar qaysi qo‘shiqdan olinganini darrov payqagandirsiz-a, bolalar? Ha, ular tengdoshingiz Shohruh repperning jiyani Sarvarning qo‘shig‘iga tegishli. Tengdoshlaridan hecham farq qilmaydigan, beg‘ubor, iste'dodli Sarvarning orzu va niyatlari bilan qiziqdim.

–Sarvar, san'atning mashaqqatli imtihonlari sizni toliqtirib qo‘ymayaptimi?

–Yo‘q. Barchasiga ulgurishga harakat qilyapman. Oyimning aytishlaricha, men juda kichkinaligimdan kuy-qo‘shiqqa qiziqqan ekanman. Bobom Rahimjon Ismoilov Shahzod akam bilan menga tor chalib, maqom yo‘nalishdagi qo‘shiqlarni aytishga o‘rgatganlar.

–Rep maqomdan osonroq ekanmi?

–Yo‘q albatta. Har qanday ishning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Shu qatori, rep yo‘nalishining ham. Maqomdan ko‘ra repga bo‘lgan havasim ustunroq keldi, xolos.

–Ijodga sho‘ng‘ish maktabdagi baholarga salbiy ta'sir etmayaptimi?

–Shuning uchun ham vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilyapman. Menga ota-onam bilan birgalikda ustozlarim, do‘stlarim o‘z yordamlarini berishyapti. Iloji boricha darslarimni sababsiz qoldirmaslikka harakat qilaman.

–Sir bo‘lmasa, baholaringiz qanaqa?

–Baholarimni a'lo deyolmayman, matematika fanini har doim kutaman. Ona tilidan esa biroz qiynalaman. Lekin qo‘shimcha darslar davomida yaxshi o‘zlashtirib boraman.

–O‘tgan yil sizni mashhurlar safiga qo‘shdi...

–Haqiqatan ham ko‘cha-ko`yda ketayotsam meni qo‘lini bigiz qilib ko‘rsatishib, «Ana, A,B,V kelyapti...» deyishadi. Shunda men o‘zimni noqulay sezaman. Hatto «Siz Sarvarmisiz?» deb so‘rashsa, «Yo‘q, men unga o‘xshayman» deyman.

–Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

–San'atkor bo‘lish niyatim yo‘q. Kelajakda biznesmen bo‘lmoqchiman. Lekin san'atni tark etmayman.

–«Tong yulduzi» gazetasini ham o‘qib turasizmi?

–Sinfimiz bilan obuna bo‘lganmiz, umuman bu gazeta bilan tanishman. Endi har bir sonini kuzatib bormoqchiman. Shuning uchun ham xonadonimga obuna bo‘ldim. Gazeta o‘quvchilariga esa a'lo baholarga o‘qishlarini, eng asosiysi, bir maqsad sari odimlashlarini tilab qolaman.

Nargiza MURODOVA.

MENING BUVIJONIM

Assalomu alaykum, aziz tahririyat xodimlari! Men sevimli gazetamiz o‘quvchilariga buvijonim haqida so‘zlab bermoqchiman. Buvim Sharofat O‘ralboyeva 1929-yili Jizzax viloyatining Baxmal tumanida tug‘ilganlar. Bobom Tursunbek Baubekov bilan 8 nafar farzandni voyaga yetkazganlar. Bugungi kunda 25 nafar nabira, 6 abira va 4 nafar evaraning suyukli buvisiga aylanganlar. Buvijonim har safar bizga tansiq va mazali taomlar pishirib berishdan charchamaydilar. Ular so‘zlagan tarixiy hikoya, ertak va afsonalar, avlodimiz shajarasi haqidagi ma`lumotlarni jon qulog‘imiz bilan tinglaymiz.

Nazarimda, buvimsiz xonadonimiz cho‘kib, fayzsiz bo‘lib qoladigandek tuyulaveradi. Shuning uchun doimo biz bilan bo‘ling buvijon, deyman.

Qunduzoy BAUBEKOVA,
Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi 8-maktab o‘quvchisi.

MEHRNING HAM ME'YORI BO`LSIN

Avtobusda ketayotsam, bir bekatdan 5-6 yoshli qizcha opachasi bilan chiqdi. Bidir-bidir qilib, hammani og‘ziga qaratayotgan qizcha opachasiga tengma-teng gap qaytarardi. Shunda bir ayol:

- Qizim, sen juda chiroyli ekansan, opachangga gap qaytarish senga yarashmaydi. Husningga yarasha odobing ham chiroyli bo‘lsin-da, - deya tanbeh berdi.

Haligi qizchaning yuzlari burushib ketdi va:

–Sizga emas, opachamga gapirayapman-ku, sizga nima?- deya gap qaytardi. Haligi ayol atrofdagi odamlardan uyalib, indamay qo‘ya qoldi.

Keyingi paytlarda bolalarning tarbiyasi, o‘zini tutishi haqida ko‘p va xo‘p gapirilayapti. Bola tarbiyasi oiladan boshlanadi. To‘g‘ri, har bir ota-ona o‘z farzandini yaxshi ko‘radi, erkalab-suyadi. Lekin har qanday erkalashning ham me'yori bo‘lgani yaxchi. Aks xolda u kelajakda tantiqlikka, betarbiyalikka olib kelishi aniq.

Diyora HASANOVA.

YANGI FAN QIZIQ EKAN

Barchaga ma'lumki, 7-,8-,9-sinflarda yangi «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma'naviyat asoslari» fani o‘tilmoqda. Bu fanda biz mafkura, milliy g‘oya hamda milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi «Ozod va obod vatan, erkin va farovon pirovard maqsadimiz» tushunchalarini o‘rganyapmiz. Bu fanni o‘rgatishda o‘qituvchimiz O‘rtoq Nafasovning xizmatlari katta. Har bir dars bizlarga hayot maktabi bo‘lib xizmat qilyapti.

Umida QAHHOROVA,
Oydinoy HOJIYEVA, Buxoro viloyati,
Romitan tumanidagi 20-o‘rta umumta'lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari.

BALLI QIZLAR!

Andijon shahrida joylashgan 4- umumta'lim maktabida «Qizlar klubi» faoliyat yuritishini, ayni damda navbatdagi ochiq dars o'tkazilishini eshitib, ushbu maskanga bordim. 9-sinf qizlari ishtirokida o'tkazilgan bu mashg'ulot «Latofat» deya nomlanib, «Uy-ro'zg'or maktabi»dan saboqlar, vaziyatdan chiqa olish malakalarini tekshirishdan iborat. Bahs-munozara tarzida tashkillashtirilgan dars erkin mavzuda bo'lib, «Xato qilmoq ayb emas, uni tuzatmaslik ayb» shiori ostida bo'ldi. Maktabda oltita 9-sinf mavjud bo'lib, ulardan uchtasi «kelin»lar, qolgan uchtasi «qaynona»lar guruhiga bo'linishdi. Maftuna Komilova 9-«A» sinf, ya'ni «Saxovatli qaynona», Mubina Qudratullayeva 9-«V» sinf – «Irodali kelin», Dilnoza Darveshova 9- «I» sinf – «Adolatli qaynona», Nodira Darveshova 9- «J» sinf – «Insofli kelin», Maftuna Ismoilova 9-«D» sinf – «Mehribon qaynona», Gulmira Ahmedova 9- «K» sinf – «Hayoli kelin» guruhlarining sardorlari oilada qizlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalash, ularning estetik didini rivojlantirish, farzand tarbiyasiga yo'llash, hayotning totuvligi mehnatda ekanligini uqtirib borish, milliy hunarmandchilik va pazandachilik, muomala madaniyati saboqlarini berish kabi o'z maqsad va vazifalarini to'g'ri yoritib berishdi.

–O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'smir qizlarni turmushga tayyorlash» dasturi yuzasidan olib borilayotgan ishlar hozirgi kunda hech bir kishini befarq qoldirmasligi shubhasiz. Ayniqsa, «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasi qizlarni turmushga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik qizlarni nafaqat bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qiladi, ta'lim beradi, balki ularni kasb-hunarga yo'naltiradi, yangi oila muhitiga tarbiyalaydi, -deydi ***maktabning boshlang'ich Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Munavvara Pirmatova.***

DANGASA

Qadim zamonlarda bir chumchuq bo'lgan ekan. U juda ham dangasa bo'lib, hech ish qilmas ekan.

Uning qorni ochib, daraxt kovagidagi qurtlarni yeb, qorni to'ygach uxlab qolibdi. Bir payt ilon kelib chumchuqni turtib: «Agar sen doktor ayiqpolvonni chaqirib kelsang, men seni yemayman», debdi. Chumchuq dangasalik qilib yotaveribdi. Ilonning jahli chiqib, uni yeb qo'yibdi.

Xulosa: agar chumchuq dangasalik qilib yotavermay, qulay fursatda uchib ketganda, u omon qolgan bo'lardi.

Xolida MADAMINOVA, Andijon viloyati, Andijon tumanidagi 36-ixtisoslashgan maktab-internatining 6-sinf o'quvchisi.

«DAVRIY NASHRLAR BOLTIMIZ — DO'STIMIZ»

- deydi ***maktab kutubxonachisi Odinaxon Abdurahmonova.***

–Maktabimiz obuna masalasiga jiddiy qaraydi. Biz, avvalo, o'quvchilarni o'z nashrlariga obuna qilamiz. Yangi chiqqan gazeta va jurnallarning materiallaridan o'quvchilarni boxabar qilamiz, munozaralar o'tkazamiz. Ayniqsa, maktabning boshlang'ich Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Munavvara Pirmatova boshchiligidagi «Latofat» qizlar klubi tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Andijon shahar bo'limi hamda «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro jamg'armasining viloyat bo'limi bilan hamkorlikda bo'ladi. «Bilmayin bosdim tikanni...» mavzusida ko'proq tushuntirish ishlarini olib boradi. Uning haftada ikki marotaba o'tkaziladigan sho'ba ishlari «Ma'naviyat haqida», «Muhabbatning yoshi nechada?», «Siz bunga ishonasizmi?», «Mehmon nega hurmat qilinadi?», «To'ylar haqida o'ylar», «Oilada ota-onaning o'rni», «Odobli qiz qanday bo'ladi?», «Go'zallik tarbiyasi–baxt kaliti» kabi bir qancha mavzularda ma'ruza, bahs va munozaralar o'tkazishi yoshlarning tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Jan Polning «Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo'lib yetishamiz», degan fikrini qo'llab-quvvatlayotgan yosh mutaxassisimiz ishlariga muvaffaqiyat tilaymiz.

EKOLOGIYA VA BIZ

–Maktabimizda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish ishiga hissa qo'shadi, - deydi ***ilmiy bo'lim mudiri Elnura Abdurahmonova.*** – Chunki ekologik madaniyatli kishi tabiatdan oqilona foydalanish qoidalariga rioya qilishi, atrof-muhitning yaxshi saqlanishiga doimo g'amxo'rligi, uning ifloslanishiga va buzilishiga yo'l qo'ymasligi, tabiatga zarar yetkazuvchi harakatlarning oldini olish va tabiatni muhofaza qilish g'oyalarini targ'ib qiladi. O'quvchilarga o'simliklar, uy hayvonlari va parrandalarni parvarishlash, ularga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi, «Ekosan» jamg'armasi bilan hamkorlikda ish olib boradi.

HAYOT

Bu hayot bir imtihon,
Yashash kerak xolisan.
Barchaga qil saxiylik,
Oxir o'zingga oson.

Yomon yo'llarga yurma,
Yolg'on so'zingda turma.
Yaxshi bo'lsang o'zingga,
Birovni yo'ldan urma.

Malika MAMAYUNUSOVA, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi 1-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

MAKTABIMNI MAQTAGUM

Bizning 14-ixtisoslashgan maktab-internatimizda «Davlat ta'limi» Dasturi asosida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Direktorimiz Ulug'bek Janodilov boshchiligida sinfxonalar jahon ta'lim standartlariga mos keladigan holda qayta ta'mirdan chiqarilib jihozlanmoqda. Qish mavsumi bo'lishiga qaramay, xonalarimiz issiq va shinam. Til-adabiyot, tarix, kimyo-biologiya, ma'naviyat xonalari zamon talablari asosida qayta jihozlandi. Ilg'or pedagogik texnologiya asosida bilim berishda Ashurali Isoqov, Salimjon Asronov, Inoyatxon Mamajonova, Odinaxon Haydarovalar jonbozlik ko'rsatishmoqda. Ingliz va rus tili xonalarining maxsus jihozlangani ko'rgan odamning bahri dilini ochadi. Ixtisoslashgan maktab-internatimizning yotoqxonasi ham mavjud bo'lib, ozoda va issiqligi bilan maqtovga loyiq. Bunda Adhamjon Jiyanov boshchiligidagi ishchi-xizmatchilarning roli katta. O'quvchilarimiz har yili tuman va viloyat olimpiadalarida faol qatnashadilar. Bu yil Behzod Yusupov huquq bo'yicha viloyatdan 3-o'rinni egalladi. Bitiruvchilarimizning 85 foizi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishmoqda.

Tohir TOSHTEMIROV, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 14-ixtisoslashgan maktab-internatining ingliz tili o'qituvchisi.

BU HAMMA UCHUN

Tadbirda qizlarga yurish-turish, kiyinish, mehmonga borish, so'zlashish odobi, imon-e'tiqod, go'zallik tarbiyasi, oilaviy munosabatlar kabi odob-axloq me'yorlari tanqidiy ravishda namoyish etildi. Ulardan ba'zilarini sizlarning e'tiboringizga havola qilmoqchimiz:

Qaynona kelinidan soatni so'radi.
Kelin shoshgancha:
- 15 takam, - deb uyiga kirib ketdi.
Qaynona kelinidan ranjidi. Qaynona haqmi?

(Kelin to'g'ri javob bergan, ya'ni soat 9.55 bo'lgan).

* * *

Qanona kelinini chaqirganda, ikki nafar nabirasi yugurib keldi. Kelinning ismi nima?

(Sohibjamol).

* * *

Otamning qizi, lekin opam emas, singlim ham emas, u kim?

(Men).

* * *

Stol ustida piyola, unga suv quysa, nima bo'ladi?

(Xamir).

Muharrama PIRMATOVA.

Yangi yilimiz biz uchun barakali keldi. Buni tahririyatimizga kelayotgan xatlarning ko'pligidan ham bilsa bo'ladi. Ularning aksariyati «Onajonim tabiat» sahifasiga ekanligi bizni yana-da quvontiradi. Chunki tabiat shaydolari qancha ko'paysa, uning himoyachilari davrasi ham shuncha kengayaveradi.

Quyida ana shunday maktublardan saralangan sahifamizni e'tiboringizga havola qilyapmiz.

O'qing, siz ham maktublar yo'llang.

TUNGGI «OVCHILAR»

Ilgarilari tipratikanni juda yuvvoshgina, beozor jonivor deb o'ylardim. Yaqinda bir kitobda o'qib qoldim, aslida u juda jizzaki va jahldor ekan. Biror nojo'ya harakat qilsangiz, pishillab, g'ujanak bo'lib olarkan. Kun bo'yi inida biqinib yotib, kechasi ovga chiqarkan. Yana, juda ochofat bo'lib, ilon, sichqon, kaltakesak va boshqa hasharotlarning anchaginasini ko'rdim demas ekan. Qornini yaxshilab to'ydirib olarkan-da, qahraton qish oylarida uyquga ketarkan. Issiqqina inida erta bahorgacha mazza qilib uxlarkan.



Men bu kitobdan yana bir sut emizuvchi hayvon – ko'rshapalaklar haqida ham qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldim. Ko'pchilik bu hayvonlarni bir xil bo'ladi deb o'ylaydi. Aslida fanga ularning 4 xil: mallarang shomshapalak, mitti ko'rshapalak, katta shomshapalak hamda taqaburun ko'rshapalak nomli turlari ma'lum ekan. Ular ham xuddi tipratikanlar kabi tunda ovga chiqishadi. Kunduz kunlari esa parda qanotlarini yuzlariga tortib, tokchalarda ilinib uxlashadi.

Qiziq, nimaga ular yuzlarini berkitib olisharkin-a? Balki juda xunuk va ko'rimsiz bo'lgani uchundir. Ko'pchilik bolalar ko'rshapalaklardan juda qo'rqishadi. Lekin bu jonivorlarning insonlar uchun hech qanday xavfi yo'q, aksincha, foydasi bor ekan. Chunki ular qon so'ruvchi va zaharli hasharotlarga qiron keltirishadi.

Munisa KOMILOVA.

U HAMISHA GULGA TALPINADI

Asalari tabiatning ajoyib mo'jizasi. Bu kichik va mehnatkash jonivorning hayot tarzi esa g'oyat ajoyib. Asalarilar qisqagina umri mobaynida oila-oila bo'lib, juda ahil va inoq yashaydilar. Har bir oilada 75-80 ming, hatto 90 mingdan ziyod arilar bo'lishi mumkin. Ma'lumki, ular mo'ylovlari orqali hid bilishadi.

Lekin gulning hidi, rangi, hatto ultrabinafsha nurlarni ham yaxshi farqlay olishini bilasizmi? Ishchi asalarilar xartumlari bilan gul changini so'rgach, yig'ilgan nektarni so'lak bezi suyuqligi bilan uyalariga yetib kelgunlaricha aralashtirib, olti qirrali katakchalariga yig'ishini kuzatishingiz mumkin.

Tinim bilmas bu jonivorlar uchun halol mehnat qilish hamisha huzur-halovat bag'ishlaydi. Ularning butun vujudi mehr-muruvvat, mehnatsevarlik, halollik va zahmatkashlik hislari bilan yo'g'rilgan. Asosiy vazifalari, gul changi va nektar-sharbat yig'ishdan iborat. Shuningdek, o'z uyalari atrofini saranjom-sarishtalash, ona ari hamda katakchalardagi lichinkalarni mehr bilan oziqlantirish, tashqi xavf-xatarlardan himoyalash kabi bir qator yumushlarni ham bajon-u dil bajarishadi. Bu zahmatkash hasharotlar yilning aprel oyidan to noyabr oxirigacha tabiat qo'ynida dastlab bodom, o'rik, gilos kabi mevali daraxt gullari, keyinroq qoqigul, no'xat, rayhon, bo'tako'z kabi o'simlik gullaridan,



saraton kirgach oqquvray, yantoq, zihir, g'o'za va beda kabi o'simliklar, kuzda esa qovun, tarvuz, oshqovoq kabi poliz ekinlarining gullaridan nektar yig'adilar. Qarang-a, ular ishlab chiqargan mahsulotlarning hech biri chiqitga chiqmas ekan. Qisqagina umri mobaynida minglab o'simlik gullarini changlatish natijasida qishloq xo'jaligi uchun bemisl foyda keltiradi.

Asal ona tabiat tomonidan insonga in'om etilgan bebaho ne'matlardan biridir. Ayniqsa, uning shifobaxsh xususiyatlarini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino asalning shifobaxsh xususiyatlari haqida to'xtalib, uning shirinlik sifatidagi iste'molidan tashqari shifobaxshlik xususiyatlarini ham qayta-qayta e'tirof etgan. Avvalo u insonni tetik va kayfiyatini xush saqlaydi. Asab tizimi, yurak, qon-tomir kabi ko'plab xastaliklarga ham nafi bor.

Xullas, asalarilar qisqagina umrini zahmat hekib o'tkazishadi. Ularning tkashligi, ahil-inoqligi, hamjihatligi ayrim ...qayd, tanbal va yalqov bolalarga o'rnak bo'lsa arzigulikdir.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 78-maktabning oliy toifali o'qituvchisi.

O'QI, QIZIQ!

G'arbiy Afrikada bizning kabutarlarga o'xshaydigan, lekin rangi juda yorqin bir qush yashaydi. U yashil, sariq, ko'k va qizil rangda tovlanadi.

Biroq, tyurako (bu qushni shunday atashadi) suvda yoki yomg'ir tagida qolib ketsa, xuddi yomon bo'yalgan gazlamaga o'xshab ranglari o'cha boshlaydi. Ayniqsa, qizil bo'yoq tez o'chadi. Shuning uchun ham ob-havoning quruq va yomg'irli kelishiga qarab qushning rangi ham o'zgarib turadi.

* * *

Avstraliyada yerga tushmay, umr bo'yi daraxt ustida yashaydigan kengurular ham bor ekan.

* * *

Amerika bog'larida hayot kechiradigan shunday bir shilliqurt borki, tabiat saxiylik qilib, unga 14175ta tish bergan.

Maftuna JO'RABEK qizi tayyorladi,
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining 3-«A» sinf o'quvchisi.

FLORA VA FAUNA

BILASIZMI?

Qushlar orasida eng gapdoni Afrika kulrang to'tiqushining avlodi Pradl laqabli qushcha sanaladi. 12 yil davomida Londonda o'tkazilgan «Eng gapdon to'tiqush» tanlovida g'olib bo'lib kelgan bu qushcha 800 ta so'zni bilar ekan.

* * *

XVII asr o'rtalarida Yaponiyaning janubiy-sharqida ko'paytirilgan hind qizil xo'rozi dumining uzunligi 10,6 metr deb hisobga olingan ekan.

* * *

Dunyoda eng mayda ot yapon oti bo'lib, uning bo'yi 38 santimetr, og'irligi 11,9 kilogramm ekan.

Spantenbergdagi bir mol shifokorining guvohligiga qaraganda, kichik J.Uilyamsga tegishli bo'lgan toychoqning bo'yi 35,5 santimetr, og'irligi esa 9,07 kilogrammni tashkil qilgan ekan.s

JONIVORLAR HAM MEHRGA TASHNA

Bir kuni ukam ko'chadan oppoqqina kuchuk bolasini topib keldi. Aytishicha, ikkita qora va bitta oq kuchukni kimdir qog'oz qutiga solib, ko'chaga tashlab ketgan ekan.

Avvaliga buvam kuchukchani boqishiga qarshilik qildilar. Lekin u shunaqangi shirin, ko'zlari munchoq, yoqimtoy ediki, qanday qilib «xo'p» deb yuborganlarini o'zlari ham sezmay qoldilar. Onasini sog'inib, kechalari g'inshib chiqishiga ham chidadilar.

Bir kuni kuchukchamiz betob bo'lib qoldi. Veterinarga olib borsak: «Xom sut beribsizlar, yana, onasini ham sog'inibdi. Lekin o'zi sog'lom kuchuk ekan», dedi.

Bu gapdan juda quvonib ketdik va kuchukchamizga Linda deb nom berdik.

Shu kunlarda Lindamizning tishlari chiqyapti. Bunday paytda ular juda tajang, serjahl bo'lib qolisharkan. Bundan bexabar uning jig'iga tekkandim, qo'limni tishlab olsa bo'ladimi?! Tishlari mayda bo'lsa ham juda baquvvat, o'tkir ekan. Og'riq azobiga chidolmay yig'lab yubordim.

Veterinar ko'rigiga olib borgandik, kuchukchamiz 10 kun o'sha yerda qolishini aytishdi. Sababi, agar u quturgan bo'lsa, 10 kunning ichida o'lib qolarkan...

Qolishga qoldirdig-u, ertasi kuniyoq jarima to'lab, uyga qaytarib olib keldik.

Linda mehribonchiligimizni sezgandek, o'yinqaroq ukam qo'lini hatto og'ziga tiqib yuborsa ham tishlamaydigan bo'lib qolibdi.

Kuchuklarni juda aqlli jonivor, deyishadi. Bunga endi o'zim ham amin bo'ldim.

Nargiza MUHITDINOVA.

UYIMIZDA BAHOR

O'lkamizda kumush qishning so'nggi oyi hukm suryapti. Garchand u qorli, qirovli kunlari bilan zeriktirib yubormayotgan bo'lsa-da, hozirdanoq bahorning iliq kunlarini, tabiatdagi yashillikni qo'msab qolyapmiz. Lekin ko'klam sog'inchini biroz aritish, bahoriy muhit yaratishning bir yo'li bor. Tuvaklarda xilma-xil gullar o'stirib parvarishlasak, ular xonamizga chiroyli manzara, qalblarimizga esa bir olam zavq baxsh etadi. Gullarga boqib ko'zimiz quvnaydi, bahri dilimiz ochiladi. Asosiysi, ular zaharli havoni yutib, o'zlaridan kislorod ajratib chiqarishadi. Bu esa inson salomatligi uchun juda muhim.

Men ham uyimizda ko'plab xonaki gullar o'stiryapman. Shu kunlarda gullarim chamandek ochilgan.

Ona tabiat biz farzandlariga zilol suvlari, musaffo havosi, unumdor tuproqlari, qo'yingchi, barcha ne'matlarini ishonib topshirgan. Ulardan oqilona foydalanib, bizdan keyingi avlodlarga ham bus-butun yetkazish barchamizning insoniy burchimizdir. Shunday ekan, tabiat oldidagi burchimizni bajarishga vijdonan yondoshaylik.

DARAXT NECHA YIL UMR KO'RADI?

Tabiatning ko'rki bo'lmish daraxtlarning hajmi bo'yicha xil bo'lgani kabi ularning umr ko'rishlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, yman daraxti bir yarim, ikkiqning yil yashasa, oq qayin va qarag'ay undan bir necha marotaba uzoq – 250 yilgacha umr ko'rishi mumkin. Ularning yoshi bir yerda o'sganini yoki insonlar tomonidan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib ekilganiga ham bog'liq bo'ladi. Tabiiy holda o'sadigan daraxtlar ko'chirib ekilganiga nisbatan ancha uzoq yashaydilar. Bunday daraxtlar sirasiga jo'xa, eman, oq qayin, qarag'ay hamda tilog'och kiradi. Bu daraxtlar bir asrdan ortiq umr ko'radi, agar insonlar tomonidan kesib yuborilmasa albatta. Biz miriqib dam oladigan madaniyat va istirohat bog'larini saqlab, ko'paytirib turadigan bu daraxtlarni o'zimiz uchun ham avaylab-asrashimiz lozim.

Tilda USMONXO'JAYEVA,
poytaxtdagi 13-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

CHUCHUK SUV MUAMMOSI

Suv hayotning bebaho in'omidir. Usiz hayot bo'lmaydi. Ko'pchilik bolalar qor, yomg'irlar yog'ib turar ekan, demak, suv ham hech qachon tugamaydi, deb o'ylashadi. Menimcha, bu noto'g'ri fikr. Chunki suv butun yer yuzida bir xilda taqsimlangan emas. Orol dengizining qurishi fikrimizning yaqqol misolidir. Uning halokati ham biz insonlarga saboq bo'lmayapti, nazarimda. Biz suvni isrof qilibgina qolmay, uvolidan qo'rqmay ifloslantiramiz ham. Bir paytlar ota-bobolarimiz hatto xas-cho'plardan ham tozalab, e'zozlab ichgan, tandirdan chiqqan issiqqina nonlarini oqizoq qilgan daryo va anhorlarni axlatxonalarga aylantirib yuborganimiz ham achchiq haqiqatdir. Hozirgi kunda chuchuk suv masalasi dunyodagi eng dolzarb muammolardan sanaladi. Bu muammo O'zbekistonimizni ham chetlab o'tmagan. Chuchuk suv qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft sanoatlaridan chiqadigan ftor, fenol, xlor va boshqa zararli moddalar hisobiga ham ifloslanadi. Yurtimizdagi Chirchiq, Ohangaron, Qorasuv kanali, Norin, Tuyabo'g'iz, Qoradaryo, Isfayramsoy, Zarafshon, Janubiy Surxon, Tuyamo'yin suv omborlari, Sirdaryoning Farg'ona vodiysi, Amudaryoning Termiz, Nukus oqimlari ifloslangan oqimlar hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzida suv yetishmasligi va ifloslanganligidan yiliga 500 milliondan ortiq kishi kasallanmoqda. Shunday muammolar tufayli aziyat chekayotganlarning soni sayyoramiz aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etar ekan.

Men bu ma'lumotlarni bejiz keltirmadim. Shoyad, axlat qutilari o'rnatilgan joyga borishga erinib, chiqindilarini suvga oqizayotgan ayrim kimsalarga saboq bo'lsa. Nimaniki xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan, deyishadi. Bunday vijdonsiz kishilarning kasriga boshqalarning ham qolishi yomonda.

Aziza NABIYEVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 38-maktabning 11-sinf o'quvchisi.

MEN SUVMAN, SHALOLAMAN...

Men suvman, shalolaman,
Tinim bilmay oqaman.
Bog'-u rog'ni yashnatib,
Barchaga xush yoqaman.

Shuning uchun insonlar,
Qadrimni xo'p bilishar.
Lekin ayrim nodonlar,
Meni isrof qilishar.

Men suvman, shalolaman,
Yo'qni ham bor qilaman.
Qadrimga yetmasalar,
Tomchimga zor qilaman.

Sitora SULTONOVA,
Samarqand shahridagi 24-o'rta maktabning 6-«D» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar! Qish kunlari kechalarining uzoq bo‘lishi tabiiy. Darslarni tayyorlab bo‘lgach, kimdir televizor ko‘rsa, yana kimdir kompyuter o‘ynashga oshiqadi. Bo‘sh vaqtlaringizni qanday o‘tkazish o‘zingizga havola, albatta. Ammo darslardan, uy yumushlaridan ortib qolgan vaqtlarini uzun kechalarda ijod bilan yoki kitob mutolaa qilish bilan o‘tkazayotgan tengdoshlaringiz ham bor. Quyida Jizzax hamda Sirdaryo viloyatidan bizga maktub yo‘llagan tengdoshlaringiz ham vaqtlarini ayamay, ijod namunalaridan ayrimlarini bizga yo‘llashibdi. Ularning ijodlariga baho berish esa sizlardan.

AHILMIZ

Biz ikki dugona – Dilnoza va Mohira Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 14-maktabning 6-sinfida a'lo baholarga o‘qiymiz. Darslardan bo‘sh vaqtlarimizda bichish-tikish, rasm chizish bilan mashg‘ul bo‘lamiz. Ustozimiz Shuhrat aka Hikmatovdan esa badiiy ijod sirlarini o‘rganib borayapmiz. Ustozimizning aytishlaricha, «Tong yulduzi»da biz kabi ijodkor o‘quvchilarning ijod namunalaridan berib borilarkan. Bu gazetaga bir yilga obuna bo‘lganmiz. Shu bois ham uning har bir sonini qo‘ldan qo‘ymay o‘qib borayapmiz. Quyida tengdoshlarimizga yozgan she'rlarimizdan namunalar yo‘llayapmiz:

QO‘G‘IRCHOG‘IM

Zerikkan chog‘larimda,
Hovli-yu bog‘larimda.
Sensan mening yo‘ldoshim,
Har yumushda qo‘ldoshim.
Ko‘ylakcha tikay o‘zim,
Dazmollab chiqay o‘zim.
Moviy ko‘zli qo‘g‘irchoq,
Menga eng zo‘r ovunchoq...

Mohira MURODOVA.

DUGONALAR

Biz ikki dugona –
Mehriniso, Mohira.
Yumushlarni bajarib,
Tinim bilmaymiz sira.
Do‘ppi tikib, kir yuvib,
Rasm chizib birpasda,
Supurgining sehridan,
Butun hovli orasta.
Onamizdan o‘rganib,
Yopdik hatto shirmoy non.
Bizday qizlari bor yurt,
Kam bo‘lmaydi hech qachon!

Dilnoza QOZOQOVA.

Mening bo‘sh vaqtim

YAXSHILIK

Qadim o‘tgan zamonda bir shoh bo‘lgan ekan. Shohning husn-u latofatda, did-u farosatda tenggi yo‘q bir qizi bo‘lgan ekan. Unga sovchi bo‘lganlarning barchasi quruq qo‘l bilan qaytib ketisharkan. Bir kuni qiz xalqqa jar soldiribdi: –Agar kimda-kim ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yaxshilik qilgan bo‘lsa, men o‘shanikiman, - debdi.

Omadini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan yigitlar saroy hovlisiga yig‘ilaveribdilar. Qiz ularning har birining so‘zlarini tinglabdi, ammo ko‘nglidagidek gap chiqmaganidan juda xafa bo‘libdi. Navkar yigit kelib, tashqarida bittagina cho‘pon yigit qolganini aytibdi. Qiz uni olib kirishlarini buyuribdi. Ko‘rinishi bir ahvolda bo‘lgan cho‘pon yigit ichkariga kiribdi. Yigitning yuz-ko‘zlaridan yog‘ilib turgan nurni ko‘rib, qiz unga pinhona oshiq bo‘lib qolibdi, ammo sir boy bermabdi.

Cho‘pon yigit dunyoda nimaiki yaxshilik qilgan bo‘lsa, barchasini unutib yuborganini, ammo kim unga yaxshilik qilgan bo‘lsa, hammasini yuragida saqlab yurganini aytibdi. Qiz bu javobdan yigitning aqlli va kamtarligidan lol qolibdi va unga tasannolar bildiribdi. Shoh bu yigitning qiziga munosibligini payqabdi va el-u yurtning yodidan chiqmaydigan to‘y qilibdi.

Barno JUMAYEVA,
Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi «Umid» nomli litseyning 10-sinf o‘quvchisi.

Ertak

YOVUZLIKNING INTIHOSI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda uzoq qishloqda bir sehrgar yashagan ekan. U juda yovuz bo‘lib, butun qishloqni bosib olmoqchi, qishloq ahli o‘rtasida yovuzlik urug‘ini sochmoqchi bo‘libdi. Barchani bir-biriga qarshi qilib qo‘ymoqchi bo‘libdi. Ammo qishloqdagilar bir-birlari bilan ahil bo‘lishni kanda qilishmabdi. Yovuz niyatini amalga oshira olmagan sehrgar bir kuni qishloq oqsoqolining qizini o‘g‘irlab ketibdi. Qishloqning manaman degan norg‘ul yigitlari qizni qutqarish maqsadida sehrgarning oshiyoniga yo‘l olishibdi. Sehrgar esa hammaga cheksiz boylik va'da qilibdi. Uning makriga uchganlarni sichqonga aylantirib qo‘yaveribdi. Oqibatda barcha yigitlar uylariga sichqon holida qaytaveribdilar. O‘z jigarporalarini tanimagan ota-onalar esa sichqonlarni daf qilish payiga tushishibdi. Bundan sehrgar juda xursand bo‘libdi.

Qishloqda bir hammolning Bahrom ismli o‘g‘li bo‘lib, u aql-idrok-u bahodirlikda boshqa yigitlardan ajralib turarkan. Yigitlarni qaytmaganini ko‘rgan Bahrom yovuz sehrgarga qarshi jangga otlanibdi.

Sehrgarning uyiga yaqinlashganda Bahrom unga ustidan zar tangalar sochilibdi, ammo u bunga qiyo ham boqmabdi. Shunda son-sanoqsiz lashkarlar yigitga peshvoz chiqibdi. Bahrom ularni bir hamladayoq yo‘q qilibdi. Bundan xabar topgan sehrgar yigitga hiyla ishlatmoqchi bo‘libdi: onasining qiyofasiga kirib, daraxt tagida uni chaqiraveribdi. Bahrom bu hiylani ham sezib qolib, unga qaramay yo‘lida davom etaveribdi. Bu hiylasi ham ish bermaganini ko‘rgan sehrgar qo‘lidagi hassasini ilonga aylantirib, uni yigitga uloqtiribdi. Yigit tezda uni kallasini olib tashlabdi. Ammo ilon ikki kallali bo‘lib qolibdi. Yigit ilonning tanasiga o‘tirib olibdi. Shunda ilon uzun tillarini chiqarib, yigitga zahoti o‘libdi. Navbat sehrgarga kelibdi. U bilan bir kecha-yu bir kunduz olishibdi. Bahrom holdan toyibdi. Ammo sehrgar sira ham bo‘y bermasmish. Ular olisha-olisha charchab qolishibdi. Sehrgarning tilinmagan joyi qolmabdi. Shu payt yigit sehrgarga sinchiklab qarasa, quloq'ining tagida bir nima lipillayotgan emish. Shunda yigit bor kuchi bilan sehrgarning qulog‘iga qo‘shib kallasini ham chopib tashlabdi. Sehrgar jon berishi bilan barcha sichqonga aylanib qolgan yigitlar o‘z holiga qaytibdi. Bahrom qizni qutqarib, uni qishloqqa olib kelibdi. Qizini sog‘-omon ko‘rgan oqsoqol uni Bahromga nikohlatib qo‘yibdi. Ular uzoq umr ko‘rib, dayr-u davron surishibdi.

Shavkat XUDOYBERDIYEV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 46-umumta'lim maktabi o‘quvchisi.

“HO‘KIZO‘LDI” TARIXI

– Men Jizzax viloyati, Forish tumanidagi Oybek nomli 18- maktabning 8-sinfida o‘qiyman. Bu yil o‘rtoqlarim bilan gazetaga obuna bo‘lib, adashmaganimga yana bir marta amin bo‘ldim. Buning boisi, gazetada bizga kerakli bo‘lgan ma'lumotlar bilan birga juda qiziq maqolalar berilib borilarkan. Endi gazetamizning har bir sonini intiqlik bilan kutamiz. Men tarixga juda qiziqaman. Bo‘sh vaqtlarimda qishlog‘imizdagi tarixiy joy nomlarini bilish uchun bobojonimning yonlariga oshiqaman. Ulardan eshitganlarimni darrov qog‘ozga tushiraman. Quyida «Ho‘kizo‘ldi» deb yuritiladigan tarixiy joy haqida sizlarga so‘zlab bermoqchiman:

Bir zamonlarda odamlar qishlash uchun toqqa, bahor oylari boshlangach dalada ishlash uchun chayla qurib yashagan ekanlar. Shunday iliq kunlarning birida Botir bobo (bobomizni shunday atadik)ning oilasi ham tog‘dan tushib kelishibdi. Eson-omon kelishgach, kechga yaqin ozroq yer haydabdi. Tun yarmida chol-kampir xirillagan ovozdan uyg‘onib ketishibdi. Botir bobo og‘ilxonaga borib qarasa, ho‘kizi bo‘g‘ilib, jon talvasasida yotganmish. Chol noiloj ho‘kiziga pichoq tortibdi.

Noiloj qolgan chol ketmonga kuch beribdi. Shu yili hosil juda mo‘l bo‘libdi. Hosilni yig‘ishtirib olishsa, bu yilgi cho‘g‘i o‘tgan yilgilardan mo‘lroq emish. Kuz oxirida ular ho‘kiz ham sotib olishibdi. Qish o‘tib, yana bahor kelibdi. Botir bobo: «Kampir, yana o‘tgan yilgi joyimizga boramizmi?», debdi. Shunda kampiri: «Ho‘kiz o‘lgan joygami?», deb so‘rabdi. Shu-shu bu yerlar o‘zlashtirilib, qishloqning nomi «Ho‘kizo‘ldi» deb yuritiladigan bo‘libdi.

Bibinisa ARSLONOVA.

Sahifani Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi.

OMADNING KALITI –MEHNAT

–Har bir oilada bo‘lgani kabi ota- onamizning biz, farzandlar uchun hamisha qo‘llaydigan tarbiya chizig‘idan bir qadam ham chetga chiqmaganim bois el orasida hurmat qozondim. Beg‘amlikdan berkinib, halollikka intilib, bag‘ri kenglikka bag‘ir bergan kishiga hamisha omad kulib boqadi. Uning kaliti, shubhasiz, halol mehnatda,– deydi qahramonimiz.

–Maktabda o‘qib yurgan kezlarimda ona tili va adabiyot faniga ixlosim baland edi. O‘zimcha she'rlar qoralab turardim. 6-sinfda yozgan «Tong shabadasi» nomli she'rim G‘uzor tumanining «Yangi hayot» gazetasida chop etildi. Bundan ruhlanib yana she'rlar yoza boshladim. 8-sinfni bitirib, mexanizatorlar tayyorlash kursida tahsil oldim. Dalada ishladim. Traktor haydadim. Ammo ijodga bo‘lgan mehrim aslo so‘nmadi. 1965-yilda tumanimiz gazetasida musahhih vazifasida ish boshladim. So‘ngra, adabiy xodim bo‘ldim. Ushbu tahririyatda Xurram O‘runov, Eshpo‘lat Daminov kabi bag‘ri keng insonlar bilan birga mehnat qilib, ulardan ko‘p narsalarni o‘rgandim. Adabiyotga, jurnalistikaga bo‘lgan qiziqishim meni olis Qashqadaryodan Toshkentga yetaklab keldi.

USTOZ OTANGDAY ULUG‘

O‘zMU (ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika fakultetini muvaffaqiyatli tugatgan Karim bobongiz dastlab ish faoliyatini O‘zbekiston davlat va jamoa xo‘jaliklari tarixi jamoatchilik institutida ilmiy muharrirlikdan boshladi. Shu institut bahona o‘z hamkasbiari, oliyjanob insonlar Abduqodir Zunnunov, Anvarbek Madrahimovlar bilan birga diyorimizning ko‘plab viloyatlari, tumanlarida, so‘lim qishloqlarida bo‘lib, xalqimizning milliy urf-odati, an'analariga, tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni to‘plab, ko‘p jildli «Tarixiy ocherklar» to‘plamida yoritilishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Salqin saharlar og‘ushida uyg‘ongan el mehri, tuproq ko‘chalarni changitib, ko‘pkari sari yeldek uchayotgan arg‘umoqlar tuyog‘ining dupir-dupir ovozi, qishloq manzaralari to‘laqonli aks etgan ko‘plab tarixiy ocherklarni yozgan muallifning qalami o‘tkir.

Mana, 20 yildirki «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida yetakchi muharrir vazifasida ishlab kelayotgan Karim bobongiz bu qutlug‘ dargoh haqida shunday deydi:

–Ushbu ma'naviyat-ma'rifat dargohi bo‘lmish nashriyot men uchun o‘ziga xos dorilfunun rolini o‘tadi. Mazkur bino o‘rnida bir paytlar Oybek domlaning «Bolalik xotiralarim» asarida tasvirlangan «Baland machit» guzari bo‘lgan. O‘sha vaqtdagi bu joylarning manzarasi shunchalik haqqoniy tasvirlanganki, uni qayta-qayta o‘qiging keladi. Bolaligimdan yuragimga cho‘g‘ solgan Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor kabi buyuk adiblarimizni betakror asarlarini o‘qib, balki o‘zim ham qalam tebratishga jazm qilgandirman.

Raim Abdurahmonov, Vosiq Abduvaliyev, Rustam Shog‘ulomov, Shoir Usmonxo‘jayev, Shomuhitdin Mansurovlar kabi bag‘ri keng insonlar bilan birga ishlab, ulardan ko‘p narsalarni o‘rgandim. Ustozlarimdan nimani o‘rgangan bo‘lsam, ularni shogirdlarimga o‘rgatdim.

ENG KATTA MUKOFOT

–Mustaqillik yillaridagi faoliyatim hayotimdagi unutilmas damlarimdir, desam aslo mubolag‘a emas. Ayniqsa, Yurtboshimizning kitoblari qo‘lyozmasini birinchilar qatorida o‘qib, nashrga tayyorlashda bevosita ishtirok etayotganimdan behad mamnunman. Davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston» nashriyoti tomonidan chop etilgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli ilk risolasi kishilar tafakkurini yana-da boyitdi. Islom Karimovning ma’ruzalari, nutqlari, suhbatlari va tabriklarini o‘z ichiga olgan ko‘p jildli asarlari to‘plamining 15-jildigacha bo‘lgan ko‘plab kitoblarining nashr etilishi esa mamlakatimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi,- ta’kidlaydi Karim bobongiz.

Birgina bu emas, zahmatkash noshir Karim bobongiz muharrirligi ostida chop etilgan turli darsliklar, qo‘llanmalar, tarixiy va huquqiy mavzudagi adabiyotlar sevib mutolaa qilinmoqda. Atoqli adib Said Ahmadning «Qorako‘z Majnun» nomli hikoyalar to‘plami, «Zilzila» nomli xotiralar va esselar to‘plami, «Jimjitlik» romani, Sharqning ulug‘ allomalari ijodiga mansub «Komil inson haqida to‘rt risola», «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz», «O‘zbekiston Qahramonlari», «Bugungi Andijon», «Amir Temur chamani», «Ibratli hikmatlar» kabi bir qator kitoblardan ma’naviy ozuqa olgan kitobxonning ularning ijodkorlari sha’niga aytadigan iliq so‘zlari muharrir uchun eng yuksak mukofotdir.

Ha, noshir-jurnalist, «Shuhrat» medali sohibi Karim Bo‘ronov hamon o‘z ustida muttasil ishlaydi, ko‘ p o‘qiydi, izlanadi. Yozgan maqolalari respublikamiz gazetalarida chop etilmoqda. Ayni vaqtda turmush o‘rtog‘i bilan 4 nafar farzandni tarbiyalab, 2 nafar shirindan-shakar nabiralarga nasihat qilayotgan Karim bobongiz Siz aziz bolajonlarga shunday tilaklar bildirdilar:

– Avvalo, bolajonlarimiz omon bo‘lsinlar. Tirishqoq, izlanuvchan, kitobsevar, bilimdon o‘quvchilar ko‘payaversin. Sevimli gazetalari «Tong yulduzi» ularning doimiy hamrohi bo‘lsin.

Jamila HAYDAROVA suhbatlashdi.

HALOLLIKKA HAMROH HALOVAT

Aziz bolajonlar! Qo‘lingizga olgan har qanday kitobning so‘nggi varag‘ida unga muharrirlik qilgan kishilarning ism-sharifi zikr etiladi. Ular ushbu kitobning mazmun-mohiyati, ilmiy-badiiy saviyasi, bezagi, qo‘yingki, barcha-barchasi uchun mas'uldir. Igna bilan quduq qazishdek murakkab bu vazifani uddalash oson emas, albatta. Noshir-muharrir kitobning direktori deyiladi. Sababi, qo‘lyozma nashriyotga kelib, kitob holida o‘quvchilarga yetib borguncha ne-ne zahmatli jarayonlarni bosib o‘tadi. Va bu jarayonda muharrir bevosita bosh-qosh bo‘ladi. Ana shunday murakkab va mas'uliyatli vazifada astoydil ter to‘kib, ziyo tarqatayotganlardan biri Karim Bo‘ronov ayni vaqtda umrining 60 bahorini qarshilamoqda. Karim bobongiz qariyb 20 yildan buyon «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida yetakchi muharrir vazifasida barakali mehnat qilib kelayaptilar. Ularni qutlug‘ yoshlari bilan muborakbod etib, suhbatga chorladik.

Karim BO‘RONOV

BOLALIK

Oltin bolaligim, ham o‘smirligim,
Parquv bulutlarning bag‘rida qoldi.
Bir vaqtlar o‘t edim, u o‘tliligim,
Bahor suvlari-la oqib yo‘qoldi.

O, tushdek o‘tdi-ku shirin bolalik,
Qancha qo‘msamayin, qaytmas u endi,
Qanchalar salom ber, u olmas alik,
Axir totli sasi abadiy tindi.

DIL IZHORI

Quyosh rosa yoyganda sepin,
Nur sepganda ayamay, so‘ngsiz,
Yog‘dularga g‘arq bo‘lib sekin,
Bilmam qancha qolaman unsiz...
O, bearmon uchgan o‘ylarim,
O, hurlikda qaynagan ilhom,
O, siz ma’sum, murg‘ak kuylarim,
Hali sizni tanimas olam!
Zotan, sizga na olqish kerak,
Siz bir dilning izhori demak.

Bugunning bolasi

BEG'UBOR YOSHLIGIM

Afsona so‘zladi oymomo menga,
Umid zarbi ila tingladim uni.
So‘ng mendan so‘radi: «Bedorsan, nega,
Ma’yus ko‘zlaringda nechun yosh seni?»

O‘tib bormoqdadir umrim bahori,
Olislarga tashlab ketyapti yoshlik.
So‘nmas orzularim, yurak g‘uborim,
Ushalmay dilimda qoldi ozorim.

Ketmagil, bir umr qol deb yig‘ladim,
Tanho undan quvonch, shodlik izladim.
Xazon olovida armonni ko‘rib,
Olis yulduzlardan uni ko‘zladim.

Buncha barvaqt tashlab ketyapsan meni,
Qadring o‘tar olislab ketganing sari.
Ayt, qaydan izlayin endi men seni,
Yolvorib so‘rayman, ketmagin nari.

Qunduzxon EGAMOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
69-maktabning 10-«A» sinf o‘quvchisi.

"O'ZBEKCHA RAQSNI SEVAMAN"

Millati ozarbayjon bo‘lgan bu qizning maqomiga yetkazib lazgiga o‘yinga tusganini ko‘rib, qoyil qoldim. O‘zi ham suluv o‘zbekoylarga o‘xshar ekan. Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 211-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Sevinch Ayvezovaning yutuqlari haqida uning o‘zidan eshitaylik:

–Men avvalo ustozlarim Nazira Gadullayevna, Anna Petrovna, Yelizavetta Davidovnalarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Ular mening yutuqlarim poydevoriga eng ko‘p hissa qo‘shganlar. Men «Billur igna», «Kuz malikasi» tanlovlarda mutlaq g‘olib bo‘lganman. Bo‘sh vaqtimni unumli o‘tkazish maqsadida «Harakat» nomli raqs to‘garagiga qatnashaman. Baletmeysterim Nadejda Maksimovna turli millat o‘yinlarini o‘rgatadi...

Sevinchning buyuk orzu-umidlar bilan hayot ostonasiga g‘olibona qadam qo‘yayotgan Sevinchga omad tilaymiz.

Nargiza ABDULLAYEVA.

Tarjimon

Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Bizlar «Tong yulduzi» sahifalarining har bir sonini katta qiziqish bilan o‘qib boramiz. Bizning ham bir taklifimiz bor edi. Qani endi «Tong yulduzi» gazetasida «Tarjimon» nomli sahifa ochilsa va biz o‘z tarjimalarimiz bilan qatnashib tursak.

Maktabimizda shu yil ingliz tilidan yangi o‘qituvchi kelib, bizning qiziqishimizni yana-da orttirdilar. Biz ingliz tili o‘qituvchimizdan minnatdormiz. Chunki Marg‘uba opa Hayitova to‘garakni qiziqarli usul bilan olib boryaptilar. U kishi o‘z fanlarini juda ham sevib o‘tadilar. Shuning uchun kundan-kunga to‘garak a'zolari soni ko‘payib bormoqda. To`garakda inglizcha asarlardan, handalardan tarjima qilamiz. Tengdoshlarimiz e`tiboriga ayrim tarjimalarni havola etamiz.

O‘qituvchi:
–Xo‘sh bolalar, kim menga aytadi, oy bizga yaqinroqmi yoki Avstraliya?

Tom:
–O`ylashimcha, oy yaqinroq.

O‘qituvchi:
–Nega shunday deb o‘ylaysan?

Tom:
–Biz oyni shu yerdan turib ko‘ramiz, lekin Avstraliyani ko‘rolmaymiz.

Shahnoza NORMURODOVA,
8-«A» sinf o‘quvchisi.

Xola:
–Jimmi tarixdan bo‘lgan imtihondan qanday o‘tdi?

Ona:
–E, uncha ham aytarli emas, lekin bu uning aybi ham emas. Negaki, ular undan bolam tug‘ilishdan oldin ro‘y bergan narsalarni so‘rashgan.

Dilsora RAVSHANOVA,
8-«A» sinf o‘quvchisi.

O‘qituvchi:
–Jek, nega har kuni maktabga kech kelasan?

Jek:
– Men chorrahaga kelganimda: «Maktab. Ehtiyot bo‘lib sekin o‘ting» so‘zlarini ko‘raman.

Dilnoza NORMURODOVA,
7-«A» sinf o‘quvchisi.



BILASIZMI?

Taxminan bir necha ming yillar oldin odamlar garchi pomidor chiroyli bo‘lsa-da, uni zaharli meva deb o‘ylashgan. Odamlar uni gul bog‘larda bezak uchun o‘stirishgan va uni «muhabbat olmasi» deb atashgan.

Nasiba SHODIYEVA,
8-«V» sinf o‘quvchisi.

Buxoro viloyati, G‘ijduvon tumanidagi 12-maktab o‘quvchilari.

Ona yurtim - oltin beshigim
TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:
To‘lqin HAYIT

TAHRIR HAY’ATI:
Turobjon JO‘RAYEV (O‘zbekiston Xalq ta’limi vaziri),
Dilbar ALIMJONOVA («Sog‘lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi ijrochi direktori),
Qahramon QURANBOYEV («Kamolot» YOIH markaziy kengashi raisi o‘rinbosari),
Jabbor RAZZOQOV («O‘zbekiston» NMIU bosh muharrir o‘rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV (Andijon viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i),
Dilshoda DADAJONOVA (Namangan viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i),
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o‘rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV (Xorazm viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i),
Ergashvoy SARIQOV (Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan.
Noshir:
«O‘zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta
«O‘zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo‘limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
Adadi - 59839
Buyurtma N: J 3291

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Muharrama PIRMATOVA
Rassom:
Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-38-10